

JANUBIY O'ZBEKISTON QATAG'ONLARIDA CHORVACHILIK BILAN BOG'LIQ AN'ANALAR

Umarov Ikromjon Ibragimovich

*Termiz davlat universiteti dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

e-mail: lochin-umarov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0007-2069-1233>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Janubiy O'zbekiston qatag'onlari tog'li mintaqada o'rnatilgan bo'lib, ular yashagan yerlar yirik o'rmonlar, boy suv manbalari va chorvachilik uchun zarur bo'lgan yaylovlarga ega bo'lgan. Qatag'onlar an'anaviy ravishda qoramol, qo'y, echki va otlarni boqqanlar. Bu chorva turlari ularning iqtisodiy faoliyatida muhim rol o'ynagan, nafaqat oziq-ovqat, balki turli hunarmandchilik tarmoqlarini ham xom ashyo bilan ta'minlagan hamda ularning madaniy va ijtimoiy hayotining muhim elementini tashkil etgan. Qatag'onlarning chorvani ko'paytirishdagi an'anaviy usullari mahalliy sharoitlarga yuqori darajada moslashganligi bilan tavsiflanadi. Qatag'onlar mavsumiy ko'chish, maqbul yaylov jadvali va hayvonlarni yirtqichlardan himoya qilishni o'z ichiga olgan samarali chorvachilik tizimini ishlab chiqqanlar. Ushbu maqolada Janubiy O'zbekiston qatag'onlarining an'anaviy chorvachilik amaliyotlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot ushbu amaliyotlarning etnografik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari kabi jihatlarni qamrab oladi.

Kalit so'zlar: qatag'onlar, gangchi, alaslash, cho'liq, arkar, xalfa, qorabayir otlari.

Аннотация: Катаганы Южного Узбекистана проживали в горной местности, а земли, которые они населяли, имели обширные леса, богатые водные источники и пастбища, необходимые для животноводства. Катаганы, традиционно занимались разведением крупного рогатого скота, овец, коз и лошадей. Эти виды животных играли ключевую роль в их хозяйственной деятельности, обеспечивая не только продуктами питания, но и сырьем для различных ремесел, а также являясь важным элементом культурного и социального уклада. Традиционные методы

разведения животных у катаганов характеризуются высокой степенью адаптации к местным условиям. Катаганы разработали эффективную систему скотоводства, включающие сезонные миграции, оптимальные графики выпаса и систему охраны животных от хищников. В данной статье рассматривается традиционная практика животноводства, осуществляемая катаганами в Южном Узбекистане. Исследование охватывает широкий спектр аспектов, включая этнографические, экологические и социокультурные особенности данной практики.

Ключевые слова: катаганы, гангчи, алослаш, чулик, аркар, халфа, лошади карабайыр.

Abstract: The katagans of Southern Uzbekistan lived in a mountainous region, and the lands they inhabited boasted extensive forests, abundant water sources, and pastures essential for livestock farming. The katagans traditionally bred cattle, sheep, goats, and horses. These animals played a key role in their economic activities, providing not only food but also raw materials for various crafts and forming an important element of their cultural and social fabric. Traditional katagan livestock breeding methods are highly adaptable to local conditions. The katagans developed an effective livestock system that included seasonal migrations, optimal grazing schedules, and a system for protecting animals from predators. This article examines the traditional livestock farming practices of the katagans in Southern Uzbekistan. The study covers a wide range of aspects, including the ethnographic, ecological, and sociocultural characteristics of this practice.

Keywords: katagans, gangchi, alolash, chulik, arkar, khalfa, karabayir horses.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Qishloq xo'jaligining muhim tarkibiy qismi bo'lgan chorvachilik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va global iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Globallashuv va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish sharoitida ushbu soha samaradorlikni oshirish va o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga moslashishga qaratilgan muhim o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda.

Chorvachilikning eng muhim vazifalaridan biri go'sht, sut, tuxum va boshqa oqsil komponentlari kabi yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdir. Ushbu mahsulotlar inson ovqatlanishining muhim elementlari bo'lib, zarur ozuqa moddalari va bioaktiv moddalar bilan ta'minlaydi. Aholi sonining ko'payishi va urbanizatsiya bilan chorvachilik mahsulotlariga talab doimiy ravishda oshib bormoqda, bu esa ularni ishlab chiqarish va qayta ishlashga innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Bundan tashqari, chorvachilik oziq-ovqat, farmatsevtika va biotexnologiya sanoati uchun xomashyo yetkazib berishda muhim rol o'ynaydi. Chorvachilik mahsulotlari farmatsevtika, kosmetika va parhez qo'shimchalarini ishlab chiqarishda komponent sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, chorvachilik tegishli iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shadi, bandlik va iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Chorvachilikning muhim jihati uning biologik xilma-xillik va ekologik muvozanatni saqlashga qo'shgan hissasidir. Har xil hayvon turlari tuproqning serhosil bo'lishi, o'simliklarni changlatish va zararkunandalarga qarshi kurash kabi muhim ekologik funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari, chorvachilik noyob genetik xususiyatlarga ega bo'lgan va yangi, yuqori mahsuldor zotlarni yaratish uchun naslchilik dasturlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan an'anaviy zotlarni saqlab qolishga hissa qo'shadi.

Shu tariqa, chorvachilik jamiyatning turli jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan

murakkab va ko'p qirrali tizimdir. Iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya va aholining o'sishi kabi zamonaviy muammolarga duch kelganda, chorvachilikning oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi roli yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni talab qiladi. Bu muammolarni hal etishda xalqimizning yuz yilliklar davomida saqlab kelayotgan chorvachilik bilan bog'liq an'analar muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ) / DISCUSSION). Janubiy O'zbekiston qatag'onlarining iqtisodiy hayotida chorvachilik muhim rol o'ynagan hamda turmush tarzining ajralmas qismini tashkil etgan. Negaki, chorvachilik xo'jaligi barqaror daromad va oziq-ovqat manbai bo'lib xizmat qilgan. O'tloqlarga boy tog' va tog' oldi hududlari chorva hayvonlarini boqish uchun tabiiy yaylov bo'lib xizmat qilgan. Parrandalar, ayniqsa tovuqlar, chorvachilik majmuasining muhim elementi ham bo'lgan.

Otlar va eshaklar mahalliy iqlim va landshaft sharoitlariga yuqori darajada moslashishi tufayli transport infratuzilmasi va yuk tashishda muhim rol o'ynagan. Bu hayvonlar nafaqat aholining harakatchanligini oshirgan, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa muhim resurslarni tashishni ham sezilarli darajada osonlashtirgan. O'z navbatida, ho'kizlar yerni ishlov berish uchun ishlatiladigan asosiy hayvonlar bo'lgan. Ulardan shudgorlash maqsadida foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirishga yordam bergan, bu esa o'z navbatida don va boshqa qishloq xo'jaligi o'simliklari ishlab chiqarishni ko'paytirishga olib kelgan. Shundan kelib chiqiladigan bo'lsa, Janubiy O'zbekistondagi chorvachilik tarmog'i qishloq xo'jaligining ajralmas qismi bo'lib, mintaqaning noyob tabiiy sharoitida dehqon xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yaxlit tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Chorvachilik qatag'onlarining asosiy mashg'ulotlaridan biri bo'lganligi bois ularda chorvachilik bilan bog'liq bir qator udum va

an'analar vujudga kelgan. Jumladan, mart oyining oxirlarida cho'ponlar molni yozgi yaylovga chiqarayotgan paytda ko'chaning ikki chetiga xashakka isiriq qo'shgan holda olov yoqishadi. Bunda ko'ch orilgan eshak va otdan tortib qo'y-echki va yirik shoxli qoramolgacha olov o'rtasidan o'tkaziladi. Odamlar, yonayotgan olov molni har qanday baloqazodan saqlaydi, deb biladilar. Bu an'ana barcha ko'chishlarda amalga oshirilgan. Umuman olganda, XX asr o'rtalariga qadar tog' aholisi yiliga uch marta bir joydan boshqa joyga ko'chib turishgan.

Odamlar o'z molini adashtirib qo'ymaslik uchun qo'y va echkilarining qulog'iga en qo'yishgan. *Enlash* deganda qo'y yoki echki qulog'ining istalgan qismidan ozgina qirqib olish tushuniladi. Shu yo'l bilan istalgan paytda chorvasini ajratib olavergan.

Qatag'onlar chorvasini asrash uchun bir qator usullardan foydalanadilar. Chunonchi, bahorning boshlarida cho'ponlar mollarini tog' yonbag'irlariga, chukri, oq chayir va boshqa achchiq ta'mli o'simliklar – andiz, zirk, yovvoyi kavrak, yovvoyi bodom, yovvoyi ko'knor, kampirdevona, afg'ono't unib turgan joyga haydab borib, o'sha yerda o'tlatishadi. Achchiq ta'mli o'simliklar chorvaga davo bo'ladi. Negaki, bu o'simliklar qo'ylarning qurtini o'ldiradi. Agar mol kasal bo'lib qolsa uchqat daraxtining shox-shabbalarini bir doshqozonga solib qaynatishadi. Bu jarayon bir sutka davom etadi va uch marta almashtirib qaynatiladi. Oxirida *silta*—qaylasi qolgach chorvaga ichiriladi [1].

Ko'klamning ilk kunlarida odamlar o'z qo'ylarini Xomkondagi Oxurliota, Xo'jaulkandagi Xo'jaulkanota, Xatak va Panjob oralig'idagi Mixcha, Xo'janqondagi Xo'janqonota, Kampirtepadagi Xo'jaabdushota va Qizilolmadagi Cho'ptashar ziyoratgohlariga olib boradilar. An'anaga ko'ra, ziyoratgohga cho'pon tayog'ini tashlab, uch marta mollarini aylantiradilar. So'ngra Alloh yo'liga bitta mol so'yib sadaqa chiqarishadi. Ayrim momolar uchta xamirni pishirib, molimiz ko'paysin deb, bola-chaqasi bilan bo'lishib yeyishadi. Maydaroq qo'y kasal bo'lsa Xo'jaulkanga borib sadaqa berib o'qitishadi. Ziyoratgohlarning ahamiyati haqida quyidagi

xalq naqli saqlanib qolgan: *Mol tilasang Xo'jaabdush, bosh tilasang Xo'janqon* [2].

Agar chorvada taloq kasalligi tarqab, qirilib ketish xavfi tug'ilsa, u holda bo'rini og'zini bog'lab, qo'ylarning ichida yurgiziladi. Bu odat *bo'ri oralatish* deyiladi. Shundan keyin kasallik ko'tariladi. Xomkonda esa qo'ylarda taloq kasalligi tarqalgan paytda butun otarni Cho'pon ota qabriga olib borilib, atrofidan uch marta aylantiriladi va kasallikni olib qolsin degan maqsadda cho'pon o'z tayog'ini shu yerda qoldirib ketadi [3].

Agar ko'klam seryog'in kelib, shamol bilan yog'adigan bo'lsa, u holda suruvni shamolga teskari haydab *o'rish* yo'nalishi tanlanadi. «O'rish»—bu qo'ylarni oziqlantirish yo'nalishidir. Bunda poda qo'tondan 15 km uzoqlikda o'tlatiladi. Chorva bir kunda borish-kelishi bilan o'rtacha 30 km yurib, qo'toniga qaytadi. Qishki mavsumda chorva qo'tondan 3-5 km masofada o'tlaydi. Negaki, qish kunlari qisqa bo'lib, qor, yomg'ir, ayniqsa tumanli kunlarda adashib qolishi mumkinligi hisobga olinadi [4].

Cho'ponlarning yordamchilari—cho'liqlardir. 3-4 ta cho'liqning boshlig'i *arkar* deyiladi. Arkar bo'lish uchun 5-10 yil kerak bo'ladi. U tog'ning toponimini bilishi, qo'yni qanday boqish, bo'ri qayerdan kelishi va shu kabi bilimlarni mustahkam egallagan bo'lishi lozim. Arkarlikka o'tish uchun maxsus sinov o'tkaziladi. Unga ko'ra, arpa yoki bug'doy unidan ikkita ko'mma pishiriladi. Ularning birini cho'liqqa, ikkinchisini olg'ir itga bir vaqtning o'zida beriladi. Agar cho'liq itdan oldin ko'mmani yesa, uni arkarlikka tayinlashadi. Agar yeyolmasa yana oldingidek cho'liqligicha qolaveradi [5].

Cho'ponning tayog'i ulug' sanaladi. Cho'pon uni o'z o'g'liga yoki eng ishonchli shogirdiga topshiradi. Cho'pon tayog'i toq sonda 13 yoki 15 tutamdan iborat bo'lib, 1,3-1,5 metrga teng bo'lgan. Bir *tutam* erkak kishining qo'l mushti kengligiga (10-12 sm) teng uzunlik o'lchovi. Uni hatlab o'tish ta'qiqlanadi. Cho'ponning tayog'i irg'ay, zarang, tug'dona daraxtlaridan qilinadi. Bunda, cho'pon ham shu daraxtlar singari qattiq, mustahkam, chayir bo'lishi maqsad qilinadi. Cho'ponning tayog'i, kelinning oyog'i degan

naql ham bor [6].

Otardagi qo'ylar o'z-o'zidan o'laversa, «chiroq yoqish» amali o'tkaziladi. Bunday hollarda cho'pon biron-bir matoni yog'ochga boylab, moyga botiradi va yonayotgan matoni dastlab sarkalarning, so'ngra qo'ylarning tagidan o'tkazib oladi. Bunda olov har qanday yovuzlikni oldini oladi degan ishonch bor bo'lib, islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlarda muqaddas deb hisoblangan [7].

Chorvadorlarning o'z homiylari bor. Zangiota—qoramollar piri, Cho'ponota—mayda mollarning piri, Qambarota—ot va chopag'onlar piri, Vosil Qora—tuyakashlar piri sanaladi. Pilla qurti boqadiganlar esa, hazrati Ayyub alayhissalomni o'zlariga pir deb bilishadi [8].

Bundan 60-70 yillar oldin zamonaviy dori-darmonlar bo'lmagan vaqtda aholi chorvasi kana, burga, gang kabi hasharotlardan ko'p zarar ko'rar edi. Hasharotlardan saqlanish uchun turli chora-tadbirlarni o'ylab topishgan. Agar chorvani burga bilan kana bosib ketadigan bo'lsa, qo'ton bilan yaylovni almashtirishadi.

Qishning oxiri ko'klamning boshlarida esa chorvani gang hasharoti (kananing bir turi) bosib ketadi. Gangning xavfli tomoni molning qonini so'rib olib, uning oriqlab o'lishiga sabab bo'ladi. Shunday paytda cho'ponlar gangchi odamlarni yordamga chaqirishgan. Xataklik Hayitqul bobo Rahmonovning (1938) eslashicha, 1954 yilning bahorida qo'ylarini gang bosib ketgach, otasi Eshto'xtarov Rahmonqul gangchi odamning xizmatidan foydalangan. Laylagondan kelgan Tursunmurod ismli gangchi bitta eski ro'molni olib tayoqning uchiga boylaydi. Keyin lattani moyga botirdi va Rahmonqul boboning o'g'illariga qo'ylarni qo'tonga qamab qo'yishni buyurdi. So'ng lattani yoqib qo'tonning ichiga kirdi va olovni qo'ylarning ustidan aylantirib «alasladi». Alaslash paytida qo'ylarning yarmi gangib yiqilib tushdi. Shunda Tursunmurod gangchi qo'tonni ochib yuborishni buyurdi. Qo'ylarning gangib yiqilmagan qismi tashqariga qochib chiqdi. Gangchi ularni quvib, ustilaridan olovni aylantirishda davom etdi. Olov bilan hurkitilgan qo'ylarning qolgan qismi ham gangib yiqilib tushdi. Ish yakuniga yetgach,

Rahmonqul bobo bajarilgan xizmati uchun unga qo'tondan istalgan qo'yni olib ketishi mumkinligi aytdi. Qo'tondan eng katta qo'yni olgan gangchi duo qilib jo'nab ketdi. Shundan keyin chorva hasharotdan butkul qutuldi.

Ganchilarni shakllantirish uchun o'ziga xos marosim o'tkaziladi. Odatga ko'ra, gangchi bobo chorvani alaslagan kuni o'sha qishloqda endigina tug'ilgan chaqaloqqa hali ona sutini emdirmay turib, gangning qonini og'ziga tomizadi. Unga duo beradi. Shu bilan maxsus gangchi odamlar tayyorlanadi. Ular hamisha el ichida yurishadi va oddiy odamlardan ajratib bo'lmaydi. Faqat cho'ponlargina ularni tanishadi [9].

Ko'hitang qatag'onlarida yilqichilik xo'jaligi ham yuksak darajada rivojlangan edi. Jumladan, Ko'hitangning Boysuntog' tizmasiga qadar cho'zilgan qismi, ya'ni hozirgi Xomkondagi Qorag'ursoq darasi, Qizilhovuz, Tuynuk, Suvsiz, Osmonbuloq, Karsonbuloq, Cho'chqako'l, Janjalgaza, Davlatgaza, Jiydabuloq, Qizilkamar ota, Ko'yuk dasht, Oqbuloq, Shoxli, Qirqbeshbuloq ota, Changchi, Pattali, Qizilzov, Sho'rko'l yaylovi, Go'rdara, shuningdek, Bog'lidara, Tangidevonning ichki qismidagi Ko'yukdara, Xo'janqonning dara qismi, Zarautsoy, Shoti, Qizilolma, Shalqonning old tomoni zotdor otlarni boqish va ko'paytirish (urchitish) uchun tabiiy-geografik jihatdan juda qulay bo'lib, sersuv buloqlar, ot organizmi uchun kerakli bo'lgan ozuqabop sero't yaylovlar, eng muhimi, tabiiy tuz konlari mavjud bo'lgan joy hisoblanadi. Bu hududlardagi tulporlar tog'-toshlar, qiradirlarda o'sganligi uchun cho'lda yetishtirilgan otlarga nisbatan chidamliligi bilan ajralib turgan.

XX asrning 30-40 yillariga qadar Ko'hitang tog'larida qorabayir otlarining qora, jiyron, oq, bo'z, to'riq, qoraqashqa turlari yetishtirilgan. Qorabayir otlari axaltekini va arab otlaridan farq qilgan. Oxirgi ikki ot naslining xususiyatlari deyarli bir xil. Axaltekini otlari baland bo'yli, chiroyli, oyoqlari uzun va ingichka, ko'kragingining aylanasi 175-190 sm, tananing qiyalama uzunligi 160-165 sm (qulunlarning yag'rini 160 sm) bo'lgan. Ularning oyog'i qumlik joyda yurishga moslashgan bo'lib, asosan poygada ishlatilgan. Ammo poyga otlari

ko'pkariga unchalik yaramaydi.

Ko'hitang qorabayirlari yuqorida qayd etilgan zotdor otlardan farqli ravishda yirik, dutor bo'yin, bellari baquvvat va uzun, dumg'azasi qalin, uchali, mushaklari o'ta mustahkam, paychalari qayishqoq va mustahkam, oyoq suyaklari yo'g'on, tuyoqlari non yopgichga o'xshagan yirik, ranglari tiniq, nihoyatda chidamli, uchqur va ko'rkam bo'lgan. Urchitish davrida mana shunday sifatga ega bo'lgan uloqchin (ko'pkarida qatnashuvchi otlar) ayg'irlar, shuningdek, sag'risi (uchasi) enlik, dumg'azali baytallar tanlangan.

Umuman olganda, zotdor ot yetishtirish uchun zarur bo'lgan asosiy shart bu – tabiiy tuz koni, ma'danli joy, mineral suvlarga boy hudud va keng yaylovlar edi. Axaltekin va Ko'hitang otlari yetishtiriladigan hududlarda aynan shunday sharoit mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoning boshqa hududlarida bunday qulay joy deyarli kuzatilmaydi. Hatto, Surxondaryoning Boysuntog', Bobotog', Hisor tizmalarida, qo'shni Afg'oniston tog'lari va Tojikistonning Pomir tog'larida ham zotdor otlar uchun zarur bo'lgan sharoit yo'q. Eng sara poygachi va uloqchin otlar XX asr boshlariga qadar G'uzor bozoriga Ko'hitang va Kopetdog' tog'laridan olib kelinar va shu yerdan Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Turkiston, Afg'oniston va boshqa o'lkalarga tarqar edi.

Ko'rinib turibdiki, o'tmishda Ko'hitang tog'ida yashovchi aholi juda ko'plab yilqi boqqan. Dehqonchilik mavsumi avj olib, lalmidagi arpa va bug'doyni o'rib olgunlariga qadar otlarni biron-bir daraning ichkarisida saqlab turishgan. Xususan, Tangidevondagi Ko'yukdara va Xomkondagi Qorag'ursoq darasining og'zi shabballanib, ot o'ta olmaydigan qilib yopib qo'yilgan. O'rim mavsumi payti yilqi galalari shu yerda bemalol o'tlab yurgan. Chopag'onlar mana shunday joylarda boqilgan galadan o'zlari uchun ot tanlab olishgan.

Tog' qishloqlaridagi sayislar o'z otlarini yomon ko'zdan saqlash uchun turli irim-sirimlarni o'ylab topishgan. Axborotchilar bergan ma'lumotga ko'ra, agar otga kinna kirs, suqlansa u bezovtalanib, kasal bo'lib qoladi. Shunday holatda qurquray degan qushning inini

olib kelib tutatishadi va otga islatishadi. Natijada ot birpasda tinchlanib qoladi.

Qurquray (kurkurak)—beozor, ovoz chiqaruvchi, pati quyonning juniday mayin qush. Ko'hitang, Boysun, Hisor va boshqa tog'larning eng baland cho'qqilarida, odam oyog'i yetmaydigan joylarda in quradi. Uni faqat mohir qoyachilar va ovchilargina olishlari mumkin.

Qurquray ini topilmagan taqdirda dami o'tkir xalfalar otning jilovi, yugani, qamchisi, ola ipi, xalfaning pichog'i yoki tasbehi bilan silaydilar. Xalq tushunchasiga ko'ra, otning devi kuchli bo'lib, dami kuchsiz mullaga ziyon yetkazib, og'zini qiyshaytirib qo'yishi mumkin. Shu bois, otni faqat maxsus tayyorgarlik ko'rgan xalfalar o'qishadi. Xalfa deganda, ko'z tekkanni o'qiydigan, kinna va suqni silaydigan kishilar tushuniladi [10].

Shuni ta'kidlash joizki, ot bilan uning chavandozini ko'zga ko'rinmas ip bog'lab turadi. Ot o'z chavandoziga mehr qo'yadi, unga erkalanadi, hazillashadi. Egasini bir yoki ikki kundan keyin ko'rsa kishnab yuboradi. Xursandligidan yer depsinib, kallasini pastga tushirib, dumlarini gajak qilib, quloqlarini tepaga chimirib, qoziq atrofida aylanadi. Suvsiz yoki yemsiz qolganda esa ot nola qilib kishnaydi. Guvohlarning shohidlik berishicha, egasi vafot etgan ot yig'lagan, bezovtalanib, bir hafta ovqat yemagan. O'z egasiga sodiq ot uni yarador holda tashlab ketmagan.

Umuman olganda, qatag'onlar etnografik guruh sifatida chorvachilik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan boy tarixiy va madaniy merosga ega. Ushbu soha bilan bog'liq an'analar ularning madaniy o'ziga xosligi va ijtimoiy tuzilishining muhim jihati hisoblanadi. Bu nafaqat mazkur etnik guruhning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi, balki Janubiy O'zbekiston aholisining madaniy merosini kengroq o'rganishga ham hissa qo'shadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Janubiy O'zbekiston qatag'onlarining an'anaviy chorvachilik xo'jaligi etnografik, ekologik va ijtimoiy komponentlarni birlashtirgan murakkab tizimni ifodalaydi. Ushbu usullar mahalliy sharoitga yuqori

darajada moslashishni namoyish etadi va qatag'onlar tomonidan asrlar davomida to'plangan tajriba va bilimlarning natijasidir. Mazkur amaliyotlarni o'rganish an'anaviy jamiyatlarda inson va tabiatning o'zaro ta'siri

mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi va mintaqada barqaror chorvachilik uchun zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqishda foydali bo'ladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Турсунов С., Пардаев Т., Курбонов А., Турсунов Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти— Сурхондарё этнографияси. —Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. —Б. 96.
2. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Kampirtepa qishlog'i, 2022 yil.
3. Файзуллаева М.Х., Кичкилов Ш.Х. Хомкон – тарихий этнографик маскан (этногенез, этник тарих ва этномаданият). —Тошкент: Замон-Полиграф ОК, 2022. — Б. 67.
4. Dala yozuvlari, Boysun tumani, Chilonzor qishlog'i, 2022 yil.
5. Dala yozuvlari, Boysun tumani, Xomkon qishlog'i, 2021 yil.
6. Umarov I.I. Ko'hitangtog' qishloqlari aholisining nomoddiy madaniyati. — Termiz:— Termiz davlat universiteti NMM nashriyoti, 2025. —B. 31
7. Файзуллаева М.Х., Кичкилов Ш.Х. Хомкон – тарихий этнографик маскан... — Б. 67.
8. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов А., Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. —Тошкент: Мухаррир, 2012.—Б. 20–21.
9. Dala tumani yozuvlari, Sherobod, Xatak qishlog'i, 2022 yil.
10. Умаров И.И. Бадаш: тарих ва анъана. —Термиз: Сурхоннашр, 2018. —Б. 87.